

## O‘SIMLIKLARNI BARGIDAN OZIQLANTIRISH VA O‘GITLARNI ME’YORIDA QO‘LLASH

**Islomova Gulsevar Qaxramon qizi**

Qarshi davlat universiteti agrokimyo va ekologiya kafedrasи 4-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*O‘simgliklarni bargidan oziqlantirish va bu orqali hosildorlikni oshirish shuningdek, qurg‘oqchilikka chidamliligin oshirish, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish va sho‘rlanishni oldini olish. Shuningdek, turli xildagi makro va mikro elementlardan foylanib yuqori va sifatli mahsulotlar olish to‘g‘risida.*

**Kalit so‘zlar:** *qurg‘oqchilikka chidamlilik, sho‘rlanish, makro va mikro elementlar, zararkunanda hasharotlar va yuqori hosildorlik.*

## **ВНЕКОРНЕВАЯ ПОДКОРМКА И УМЕРЕННОЕ ВНЕСЕНИЕ УДОБРЕНИЙ**

### **АННОТАЦИЯ**

*Внекорневая подкормка растений и тем самым повышение урожайности а также повышение засухоустойчивости борьба с насекомыми-вредителями и предотвращение засоления. А также получение высококачественной продукции с использованием различных макро-и микроэлементов.*

**Ключевые слова:** *засухоустойчивость, засоленность, макро-и микроэлементы, вредители насекомые и высокая продуктивность.*

## **FOLIAR FEEDING AND MODERATE APPLICATION OF FERTILIZERS**

### **ABSTRACT**

*Foliar feeding of plants and thereby increasing yield, as well as increasing drought tolerance, pest control and salinity prevention. It is about obtaining high and quality products using various macro and micro elements and benefiting agriculture.*

**Key words:** *drought tolerance, salinity, macro and micro elements, pest insects and high harvestivity.*

**Kirish.** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda yo'lga qo'ymas ekanmiz, sohada rivojlanish bo'lmaydi". Shu sababdan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda rivojlantiritish ko'zda tutilmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida yildan-yilga talab ortib bormoqda, shu sababdan ko'plab fermer xo'jaliklari shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishida salmoqli o'rin egallab kelayotgan kadrlar hamda professor olimlar agrar yo'nalishida katta-katta yutuqlarga erishmoqdalar. Respublikamizda ham qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni yodda tutish kerakki, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish orqali dehqon va fermer daromadini oshirish va qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mablag'larni kamaytirish kabi masalar ilgari suriladi. Bundan tashqari, yetishtirilayotgan mahsulotlarimiz dunyo yuzini ko'rishi hamda agrar eksportni yo'lga qo'yish orqali mamlakatimizda qishloq xo'jaligi o'rni yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin [1].

O'zbekiston hududidagi deyarli barcha ekinlar ildizi orqali oziqlantiriladi, shunday bo'lishiga qaramay hozirgi kunda o'simliklarni bargidan oziqlantirish orqali yuqori hosil olinmoqda. O'simliklar ildizi hamma mikro va makro elementlarni yerdan tanaga yetkazib berolmaydi. Buning sabablari ko'p, masalan, yerni ishqorlilik darajasi, sho'rliqi, kislotaliligi va yana ba'zi elementlar o'simlikning o'zlashtirishiga qarshilik qiladi. Misol uchun azot yoki kaliy ko'payib ketsa, yerda bu Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> ni siqib chiqaradi, Ca o'simlik tomonidan o'zlashtirilmaydi. Mana shunday holatlarda o'simlik ildizi orqali hamma o'ziga kerakli bo'lgan makro va mikro elementlarni ololmaydi. Shunday holatlarni oldini olish uchun biz bargidan o'simlikni oziqlantirishimiz kerak. O'simlik barglarini hech bo'limganda har 10-14 kunda oziqlantirib turishimiz kerak va yana bir sabab o'simlikka biror element yetishmay qolsa bargdan oziqlantirishimiz mumkin. Bargdan oziq tanaga, ildizga va mevaga tez yetib boradi. Biz asosan, o'simlikka ildizdan o'g'it berayotganimizda fosfor, kaliy va azotdan foydalanamiz. Bargdan oziqlantirishimizda ham shu elementlardan foydalanamiz. Azot yoki kaliyni alohida berish yaxshi samara bermaydi, ya'ni biz azot, fosfor va kaliy elementlarini birgalikda qo'llashimiz kerak. Aksincha alohida foydalanish barg plastinkalaridan shu elementlar yaxshi o'tmaydi va uning ta'siri bilinmaydi [2].

Biz o'simliklarni bargdan oziqlantirishimizda har 10-15 kunda mayda suv zarrachalari shaklida berishimiz kerak va barg oldi, orqa va tana qismiga tegishi kerak. Boshqa usullarda qo'llash esa barglarga ko'p sepilishi natijasida kuyishga olib keladi. Bargdan oziqlantirishda berilayotgan mikro va makro elementlarning dozasi ildizdan beriladiganlarga nisbatan kamroq bo'lishi kerak. Ko'p berilsa o'simlikka zararli ta'sir ko'rsatadi. Barglardan o'g'itlash asosan hosildorlikning oshishi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan yaxshi chidamliligi, qurg'oqchilikka chidamliliginini


oshiradi. Barglarga o‘git purkash uchun eng yaxshi vaqt erta tong va kechki payt, namlik yuqori bo‘lgan va to‘liq turgor holatida, hujayralari suv bilan to‘la bo‘ladi. Aksincha, kuning issiq vaqtida purkash esa o‘simliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda uni kuydirishiga olib keladi. O‘simliklarni bargdan oziqlantirishimizda vaqt muhim hisoblanadi [3].

Yana shuni qo‘sishimcha qilishimiz kerakki, o‘simliklani bargidan oziqlantirishning bir qancha afzalliklari bor. Misol uchun biz ildizdan o‘g‘it berganimizda berilayotgan o‘g‘it tuproqqa ortiqcha solinsa uning sho‘rlanish ehtimoli yuqori bo‘ladi va bu tuproqning sho‘rlanishiga olib keladi. Buning oldini olish maqsadida bargdan oziqlantirish yo‘lga qo‘yilmoqda va yaxshi samara bermoqda. Chunki hozirgi kunda dunyo bo‘yicha sho‘rlanish darajasi yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda, biz barglar orqali o‘g‘it qo‘llasak sho‘rlanishni ham birmuncha oldini olgan bo‘lamiz. O‘simliklarni bargdan oziqlantirishni ko‘plab o‘simliklarimizda sinab ko‘rishimiz mumkin. Masalan, pomidor, bodring va boshqa o‘simliklar. Pomidor os’imligini o‘zimiz uy sharoitida barglaridan oziqlantirishimiz mumkin. Ya’ni 10 litr suv uchun bor-1-1,5g, yod-60 tomchi, karbamid(mochevina) -7-10 g, margansovka- 1 g, sut-200-250 g foydali hisoblanadi. O‘simlikning chidamliliga va hosilning sifati va tez yetilishiga yordam beradi. Har bir qishloq xo‘jaligi xodimi yoki dehqon bargdan o‘simliklarni oziqlantirsa u faqatgina oilasiga emas butun mamlakatamiz qishloq xo‘jaligi hosildorligiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bizning mamlakatimizda asosan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari iqlimi nisbatan issiq va cho‘l hududlari ko‘pligi sababli, bundan tashqari sho‘rlangan yerlar ham ko‘payib borayotganligini oldini olish maqsadida bargidan oziqlantirish yo‘lga qo‘yilishi kerak. Erta bahordan pomidor ko‘chatlari uy sharoitida ekila boshlaydi va uning hosilini yuqori qilish va daromad olish maqsadida o‘simliklarni bargidan oziqlantirish kerak. Nafaqat ochiq maydonlardagi ekinlarga balki issiqxonalarga ekilgan o‘simliklarga ham bargdan oziq berilsa tuproq muhiti yomonlashishini oldini olgan bo‘lamiz [4].

**Natija:** Bargidan oziqlantirishda o‘g‘it miqdori alohida muhim ahamiyatga ega. Ya’ni yuqorida aytib o‘tilganidek har bir o‘g‘itni(mineral va organik) ekin turiga va undagi o‘zida bor makro va mikro elementlarni aniqlab so‘ngra purkash orqali oziqlantirish ishlarini olib borsak bo‘ladi. Pomidor o‘simligini bargidan oziqlantishimiz uchun avvalo ertagi pomidor ko‘chatlari 10-12- aprelda ekiladi va qator oralari 70-90 sm, tup oralari 25-30 sm qilib har gektariga 50-74 mingtagacha ekish mumkin. Pomidor tuproq unumdorligiga va o‘gitlarga talabchan ekin. Shuni hisobga olgan holda, ko‘chatni bargidan oziqlantirishimiz uchun alohida e’tibor talab etadi. 2023-yil 15-aprelda tomorqa hududining 10 sotix maydoniga 500 ta pomidor ko‘chati ekildi va ular bargidan oziqlantirildi. O‘simlikni bargidan oziqlantirish uchun swiss growning sprayfet 239 nomli o‘git qo‘llanildi. Bu asosan o‘simlik unib

chiqqandan keyin ya'ni o'simlik tanasi taxminan 20-25 sm bo'lib ko'zga ko'rinish qolgandan so'ng erta tongda barglarning turgorlik ya'ni hujayrasida suv ko'p vaqtida har 10-15 kunda qo'llaniladi, bundan ko'zlangan asosiy maqsad, tuproq sho'rlanishini oldini olish, barglar va o'simlik tanasini yaxshi rivojlanishi va o'simlik kasallikka kam chalinuvchan bo'lishidir.

1-rasm. Sprayfet 239 foizlarda ifodalanishi.



## XULOSA

Bugungi kunda o'simliklarni bargidan oziqlantirish yo'lga qo'yilmoqda. Buning asosiy sababi tuproqning ekologik holati yomonlashuvini oldini olish va sho'rlanishga qarshi kurashishdir. Negaki, sho'rlanish nafaqat O'zbekiston hududida balki butun dunyo bo'yicha dolzarb muammoga aylanmoqda. Bundan tashqari, bargidan oziqlantirilgan o'simlik turli xildagi zararkunanda hasharotlarga hamda makro va mikro elementlar o'simlikning deyarli hamma qismiga yaxshi yetib boradi. Qo'shimcha qilib aytganda, o'simliklarni bargidan oziqlantirish hosilni yuqori bo'lishi va inson ehtiyojlarini qondirish hamda iqtisodiy tomondan daromad olishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-sonli <<2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida>> gi farmoni.
2. “Agrokimyo” fanidan amaliy mashg‘ulotlar: O‘quv qo‘llanma Buxoro - 2022
3. O‘SIMLIKSHUNOSLIK. k.x.f.n., N.Jumaev. 2006-yil

Internet manbasi.

1. Agroblog Abdullaev maslahatlari. [Супер универсал озука . Баргдан озиқлантириш \(youtube.com\)](#) 2022-yil.